

Makedoniyalik Aleksandrning davlati

Bashimov Mansurbek Tirkeshbay o'g'li

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy – Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi I-bosqich talabasi

***Annanatsiya:** Ushbu maqola Makedoniyalik Aleksandrning hayoti haqida ma'lumot beradi. Makedoniyalik Aleksandr harbiy yurishlari natijasida barpo qilgan davlati va uning boshqaruvi, davlat tutumi va olib brogan siyosati haqida bayon qilingan. Aleksandr shaxsi ustida olib borilayotgan tadqiqotlar u haqidagi malumotlarni umumlashtirishga, aniqlashtirishga va tarixni to'ldirishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** Makedoniya, Fillipp II, Sharqqa hujum, Aristotel, Doro III, Spitamen, Sind vohasdi, Bess.*

***Аннанабий:** В данной статье представлена информация о жизни Александра Македонского. Описывается государство, созданное Александром Македонским в результате его военных походов, его управление, государственное устройство и политика. Проведенное исследование личности Александра поможет обобщить, уточнить и дополнить историю сведений о нем.*

***Ключевые слова:** Македония, Филипп II, Вторжение на Восток, Аристотель, Дарий III, Спитамен, Синдский оазис, Бесс.*

***Annanatios:** This article provides information about the life of Alexander the Great. It is described about the state established by Alexander the Macedonian as a result of his military campaigns and his administration, state structure and policy. The research conducted on the person of Aleksandr will help to summarize, clarify and complete the history of the information about him.*

***Key words:** Macedon, Philip II, Invasion of the East, Aristotle, Darius III, Spitamen, Sind Oasis, Bess.*

Makedoniya yunon shahar davlariga qaraganda qaloq edi. Paleponnes janggi natijasida makediniyaliklar asta sekin yunon sivilizatsiyasini o'zlashtira boshladi. Miloddan avvalgi 336-yil yozida Filipp II qizining to'yida o'z qo'riqchisi tomonidan o'ldiriladi. Taxtga esa uning o'gli 20 yoshli Makedoniyalik Aleksandr o'tiradi. Aleksandr hayotidagi eng muhim inson — bu uning otasi Filipp II dir. O'z podshohligi uchun qilgan ishlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, Filipp II Aleksandrdan yaxshiroq hukmdor edi. Aleksandrdan farqli o'laroq u o'limiga qadar oddiy makedon jangchisiligi qolgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan imperiyani egallamagan, ammo shoh sifatida xalqining yaxshi yashashi uchun majburiyatlarini bajargan. Antik davrdagi ayrim tarixchilar uni Aleksandrdan yaxshiroq deya hisoblagan. Aleksandr bolaligidan yuqori intellekt sohibi edi. Olti yoki yetti yoshida lirada kuy chala olgan, katta yoshli insonlar bilan turli mavzularda suhbatlar qurgan. U butun grek adabiyotini o'qib chiqqan, Gomer uning eng sevimli yozuvchisi edi. Aleksandr 14-16 yoshga to'lganida Aristotel unga ustozlik qila boshlagan. Ammo baribir Aleksandrga ko'p ta'siri Aristotel emas, balki otasi Filipp o'tkazgan. Aleksandr hayotining katta qismi davomida Filippga taqlid qilishga uringan, ulg'ayib shaxsiy harbiy muvaffaqiyatlarga erishganidan keyin Filippdan o'zib ketishni istagan. Filipp II vafotidan keyin ko'pgina yunon shaharlari Fiva, Tog'li Frakiya, Illiriya qabilalari Makedoniyadan ajralib chiqa boshlaydi. Ba'zi joylarda qo'zg'olon boshlanadi. Iskandar mana shu parokandalikni oldini olishga harakt qila boshlaydi. Miloddan avvalgi 335-yilda ajralib ketgan Tog'li Frakiya, Illiyera qabilalari ustiga yurish uyishtirib itoat etishga majbur qiladi. Shimoliy yurishdan qaytgach u qo'zg'olon ko'targan Fiva ustiga qo'shin tortadi. Aleksandr Yunonistonni o'ziga qaytadan itoat ettirgandan so'ng sharq yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. U miloddan avvalgi 334-yilda 30 ming piyoda, 5 ming otliq askar va harbiy dengiz kuchlaridan iborat katta qo'shin bilan Gellopond bo'g'ozidan kechib o'tadi. Tog'li Granik daryosi boyida Aleksandr qo'shinlarini eronliklarning otliq va piyoda askarlari kutib turadi. Kech kirishga qaramay, boshlangan qattiq jangda Aleksandr qo'shinlari g'alaba qilib Kichik Osiyoning ichkarisiga yurush uchun yo'l ochib

beradi. Miloddan avvalgi 333-yil Aleksandr Kichik Osiyo markazidagi Kappodokiyani ishg'ol qilib qishni o'sha yerda o'tkazadi. Shu vaqtda Eron qo'shinlari Aleksandr tomon yo'l oladilar. Aleksandr o'z qo'shinlarini Kilikiyaga olib o'tib, Tars shahrini ishg'ol qiladi va Suriyaga qo'shin tortadi. Mil.avv. 333-yil kuzida Issa shahri yonida yunon – makedonlar Doro III qo'shinlari bilan to'qnashdi. Fors qo'shinlari son jihatdan yunon makedonlardan ko'p edi. Aleksandr katta qiyinchilik bilan g'alaba qiladi. Doro III ba'zor qochib qutiladi. Bu jang Suriya va Falastin qirg'og'ini bosib olish uchun yo'l ochdi. Damshq shahrida Doro III ning xazinasi bosib olinadi, bu Aleksandr qo'shinlarining moddiy ta'minotini ancha yaxshilaydi. Tir va G'azo shaharlari bosqinchiliklarga qattiq qarshilik ko'rsatadi. G'azoni bosib olinishi yunon makedonlarga Misrga yo'l ochdi. Misrliklar Aleksandrni fors zulmidan halaskor sifatida kutib oldilar. O'rtayer dengizi qirg'og'ida Nil daryosida mil.avv. 331-yil Aleksandr Iskandariya shahriga asos solidi. Bu shahar Misrda yangi hokimiyatning markazi, muhim savdo porti bo'lib hizmat etadi. Misr hududida bu shaharga asos solinishi Sharqda shaharlar qurilishi siyosatining boshlanishi edi. Aleksandr Memfis shahrida toj kiyadi va bu bilan Misrda o'z hokimiyatining qonuniyligini ta'kidlaydi. Mil. avv. 331-yil bahorida sharqqa yushning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Dajla daryosidan uzoq bo'lmagan Gavgamela qishloqi yaqinida Aleksandr 1 –oktabr kuni fors qo'shini bilan hal qiluvchi jangini o'tkazadi. Bu jangda Aleksandrning qo'li baland keladi va uning raqibi Doro III Midiyaga qochishga majbur bo'ladi. Iskandar qo'shinlari hech qanday qarshiliksiz jadallik bilan butun Mesopatamiyani bosib o'tib Suza shahri va Ahamoniylar davlatining markaziy hududiga kirib boradi. Bobil va Suza shahri Eronning muqaddas markazi Pesepol jangsiz bosib olinadi. Aleksandrning keying yurishlari O'rta Osiyoga qaratiladi. Aleksandr mil. avv. 329-yili Amudaryodan o'tib O'rta Osiyoga kirib keladi. Bu yerda u mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchraydi. Spitamen boshliq sak massagetlar ularga qarshi 3 yil davomida qattiq qarshilik ko'rsatadi. Noiloj qolgan Aleksandr mahalliy zodogonlarini sovg'a salomlar bilan o'z tomoniga ag'darib olishga harakat qiladi. Shu zaylda u So'g'd hokimi Iksiartning qizi Roksanaga uylanadi.

Aleksandr Baqtriya bilan So'g'diyonadi itoat ettirgach mil.avv 227- yilda Hindukish tog'laridan oshib Hindistonga bostirib kiradi. Bu davrda Sind vohasi va Panjob viloyatida bir necha mayda davlatlar bore di.Gidasp yanidagi jangda Aleksandr qo'shinlari hindlar ustidan g'alabaga erishadi. Sind vohasi va Panjob bo'ysundiriladi. Mil. avv. 325- yildan yunon-makedonlar Hindistonni tark eta boshalydi. Keyinchalik esa Aleksandr markazi Bobil bo'lgan ulkan saltanat vujudga keltiradi. Mil.avv. 323-yilda Aleksandrning o'limidan keyin esa uning mamlakati 3 qismga Misr, Suriya va Mesopatamiyaga bo'linib ketadi.

Xulosalar: Makedoniyalik Aleksandr buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, ulkan imperiyaning asoschisidir .Uning eng katta yutuqlaridan biri shundaki, u o'z davriga yarasha katta imperiya vujudga keltirgan yosh hukmdorlardan biri hisoblanadi. U o'zining bosib olgan hududlarda ellinizm madaniyati yoyildi. Bu esa o'z navbatida bosib olinga xalqlar orasida muhim ahamiyat kasb etadi. Aleksandr yoshlik chog'idanoq ham harbiy, ham ilmiy bilimlarni o'rgangan. Olib borgan yurishlari natijasida bosib olgan hududlarida o'zining davlat siyosatidagi boshqaruv tizimini ham o'rnatib ketadi. Bu esa katta mamlakatni qiyinchiliklarsiz boshqarishaga yordam berdadi. Aleksandrning jahon tarixida tutugan o'rni beqiyos hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Kabirov - "Qadimgi Sharq Tarixi" "Tafakkur" Toshkent 2016.276-280-betlar
2. R.Rajabov – "Qadimgi dunyo Tarixi" "Fan va Texnologiya" Toshkent 2009. 289-bet
3. D. Urakov,R.Tursunov,A.Biykuziyev, B.Xaynazarov – "Jaxon Tarixi"- "Innovatsiya-Ziyo" Toshkent 2020.195-220-betlar
4. Q.Usmonov,M.sodiqov,S.Burxonova – "Iqtisod – Moliya" Toshkent 2016. 44-48-betlar